



Zira | Biz bilan tayyorlang

Bizning Telegram kanalimiz



OBUNA BO'LISH

spot

Yangiliklar Maqolalar Qisqacha Eshittirishlar Qidiruv

PY O'Z



11 aprel 2019, 10:16 Ta'lim 6 643

Andijonda Hindistonning Sharda universiteti filiali tashkil etildi

Universitetda elektr muhandisligi, axborot texnologiyalari va kiber xavfsizlik, kompyuter tizimlariga xizmat ko'rsatish, biznes-menejment kabi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.



Foto: Eldos Fazilbekov / Spot

Andijonda Hindistonning Sharda universiteti filiali tashkil etildi. Bu haqda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi matbuot xizmati xabar berdi.

Universitetda o'quv jarayonlari Sharda universiteti (Hindiston) o'quv dasturlari asosida O'zbekiston Davlat ta'lim standartlari talablarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha olib boriladi.


O'quv jarayoni 2019/2020 o'quv yilidan boshlanadi.

Universitetda quyidagi va talab yuqori bo'lgan ta'limning boshqa yo'nalishlarida yuqori malakali mutaxassislar xalqaro standartlar darajasida tayyorlanadi:

- elektr muhandisligi;
- axborot texnologiyalari va kiber xavfsizlik;
- kompyuter tizimlariga xizmat ko'rsatish;
- elektronika;
- kommunikatsiya muhandisligi;
- biznes-menejment.

Universitet bitiruvchilariga O'zbekiston va Hindistonda oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida e'tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom beriladi.

«Spot»



Yangiliklarni Telegram kanalimizda kuzatib boring

Izox

Asibek Otamurodov

0



9 avgust 2019, 10:51

Man 2000yilman shu o'qishga topshirmoqchidim shu haqta malumot kerak

 **Munisa Toshtemirova**
15 avgust 2019, 20:39

^ 0 v

Man ham sharda universiteti filialiga topwirmoqchi edim royxatdan qande otsam boladi va imtihonimni qande topshirsam boladi aniq malumot bersangiz

 **Alisher Ahunov**
16 avgust 2019, 10:00

^ 0 v

Assalomu alaykum! Men ham sharda universiteti filliali aynan Andijonda ochilayotgani haqida eshitib juda hursand bo'ldim, chunki axborot texnologiyalari bo'yicha chet elda o'qish niyatim bor edi lekin imkoniyatim bo'lmagan. Shuning uchun bu haqida tezroq malumotlar olishga qiziqyabman iltimos bu haqida malumotlar qayerdan olsa bo'ladi yozib yuborilar.

 **Umid Vakhidov**
16 avgust 2019, 17:28

^ 0 v

2001 yilman ismim umid sharda universitetiga hujjat topshirdim meni bir masala qiyinayapti hujjat topshirayotganimda ielts va passport seriya raqamlarini yozish kiritilmagan ekan bu tuldirdigan arizam universitetiga utadimi yuqmi

Siz avtorizatsiyadan o'tmagansiz. Sharh qo'shish uchun saytga kiring.


Kirish

So'nggi yangiliklar

16 oktabr 13:24 **Moliya**

Milliy valyuta devalvatsiyasining jismoniy shaxslar depozitlariga qanaqa ta'sir qildi?


Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan oylik so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, 2019 yilning iyun-sentyabr oylarida omonatlarini xorijiy valyutada (shu jumladan, AQSH dollarida) saqlashni afzal ko'ruvchi so'rov ishtirokchilari ulushi ko'paygan.



15 oktabr 18:30 **Shaxsiy biznes**

Les Ailes tarixi: Ahmad Meliboyev O'zbekistonda fastfudning yangi formatini qanday yaratdi va besh yil davomida bozorda nima o'zgardi?

Havoqand People (Les Ailes, Chopar, "Bro" burgerxonasi va boshqa loyihalar) kompaniyalar guruhi asoschisi Spot'ga Les Ailesni qanday qilib 15ta filialga ega bo'lgan tarmoqqa aylantirishga muvaffaq bo'lgani, fudkordda o'z umumiy ovqatlanish nuqtasini ochish qancha turishi va u nechog'lik tez o'z harajatini qoplashi haqida so'zlab berdi.




15 oktabr 17:00 **Biznes**

"Apple vaziyat majbur qilgan"

mamlakatlarda o'z xizmat markazlarini ochgan" – "O'zstandart" agentligi

Agentlikda qayd etilishicha, xizmat ko'rsatish markazlarining mavjudligi importning keskin pasayishiga va narxlarning oshishiga olib kelmaydi.



15 oktabr 15:07 **Iqtisodiyot**

O'zbekistonda soliq kreditlari joriy etilishi mumkin


Bu tadbirkorlarning ixtiyorida bo'sh pul mablag'larining qolishiga va bu mablag'larning investitsion va innovatsion faoliyatga yo'naltirilishiga xizmat qilishi kutilmoqda.



15 oktabr 13:58 **Biznes**

"O'zstandart" agentligi elektrotexnika mahsulotlari importini cheklash to'g'risidagi loyihaga tushuntirish berdi


Agentlikda maishiy maqsadlardagi elektrotexnik mahsulotni xarid qilganda, iste'molchi qulay servis xizmat ko'rsatish sharoitlari bilan ta'minlanishi kerakligi qayd etildi.



15 oktabr 12:06 **Startaplar**

O'zbekistonlik startap-jamoa tadbirkorlik bo'yicha jahon chempionatining finaliga o'tdi


Tadbirkorlar g'o'zapoyaga biotexnologik yo'nalishda ishlov berib, qator mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishmoqchi.



15 oktabr 11:08 **Biznes**

"Soyadagi tadbirkorlarni soliqqa jalb qila olsak amaldagi soliq stavkalari pasayishi mumkin" – DSQ


Internet magazinlar faoliyati, ro'yxatdan o'tmasdan daromad ko'rayotgan tadbirkorlarga bugungi kundagi soliq islohotlarini tushuntirish ishlari olib borilmoqda.





15 oktabr 09:36 **Iqtisodiyot**

Endilikda un narxini bozor belgilaydi

15 oktyabrdan 2019 yil hosilidan tayyorlangan va un ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan bug'doy g'alla iste'molchilarining barcha toifalariga faqat birja orqali sotiladi.



13.09 Xatolar va saboqlar: Jahongir Ortixov jayev biznesdan chiqishi, xatolari va xulosalari haqida  2

05.09 O'zbekistonlik qanday qilib Dubay bankida o'z o'rmini egalladi va ikkita daromadli biznesni yo'lga qo'ydi?  1

"Afisha Media" MChJ

Sahifada xato topdingizmi?
Ctrl+Enter tugmalarni bosing

Reklama joylashtirish
Vakansiyalar

@ Instagram

YouTube

18+

Elektron OAV guvohtonomasi: №1207. Berilgan sanasi: 2017-yil 7-dekabr

Muassis: "Afisha Media" MChJ

Bosh muharrir: Elmurodov Timurmallik Abdivali O'g'li

Manzil: 100007, Toshkent, Parkent ko'chasi, 26A

Elektron manzil: info@spot.uz